

Ibrohim Avezov

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

MOLIYA BOZORI ISHTIROKCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. Jahon moliya bozori tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan bir payda, mamlakatimiz moliya bozori ishtirokchilarining faolligini oshirish iqtisodiyotimiz o'sishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi, shu bilan bir qator moliya bozorining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy ko'rsatgichlar bilan saqlab qolishga xizmat qiladi. Maqolada mamlakatimiz moliya bozorining bugungi holati, moliyaviy inklyuziya va raqamlashtirish moliya bozori ishtirokchilari faolliligiga ta'siri o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, moliyaviy inklyuzivlik, masofaviy bank xizmatlari, moliya texnologiyalari, iqtisodiy o'sish.

INCREASING THE ACTIVITY OF FINANCIAL MARKET PARTICIPANTS

Abstract. At a time the world financial market is developing rapidly, increasing the activity of the financial market participants of our country has a significant impact on the growth of our economy, at the same time the development of financial market serves to maintain the country's economic growth with positive indicators. The article examines the current state of the financial market of our country, the impact of financial inclusion and digitalization on the activity of financial market participants.

Key words: financial market, financial inclusion, remote banking services, financial technologies, economic growth.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda moliya bozori muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning eng asosiy funksiyasi, ya'ni bo'sh pullar mobilizatsiyasi hisobiga iqtisodiyotni turli sektorlaridagi yangi va samarali loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ushbu tizim samarali faoliyat

yuritishi uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini, ya'ni moliyaviy inklyuziyani oshirish talab e'tiladi.

Mamlakatimizda moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish, keng miqyosda investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqqan holda hukumat tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish orqali ularning ommabopligini oshirish maqsadida, Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha chiqarish ko'zda tutilmoqda [1]. Ammo moliya-bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali ulardan foydalanish darajasini oshirishga qaratilgan islohotlarga qaramay, O'zbekistonda ulardan foydalanish pastligicha qolmoqda.

Masalan, O'zbekiston katta yoshli aholisining 90 foizining rasmiy kreditlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. 15 yoshdan katta aholining yarmidan ko'pida banklarda hisob raqamlari mavjud emas [14]. Shuningdek, katta yoshli aholining bor yo'g'i 3 foiziginasi o'z jamg'armalarini bank omonatlarida saqlaydilar. Bu esa, mamlakatimiz aholisining moliyaviy faolligi juda sustligi va uning zahirida moliyaviy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirishga alohida ehtiyoj mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur maqolada mamlakatimizda aholi moliyaviy faoligini oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan bir qator omillar tahlili asosida, ularning ta'sirini kamaytirish va moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish imkoniyatlari bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va doimiy rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashtirib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Moliya bozorida uning ishtirokchilari faol ishtirok etishida moliyaviy xizmatlarning ochiq va qulay bo'lishi ham bevosita ta'sir qiladi, buni moliyaviy

inklyuziya o'zida aks ettiradi. Ushbu tushunchaning mazmuni va ahamiyati bo'yicha bir qator iqtisodchilar fikrlari va yondashuvlarini bayon etganlar.

Iqtisodiyotdagi muammolarni hal qilishga imkon yaratuvchi mamlakatning moliyaviy inklyuzivlik (financial inclusion) ko'rsatkichi muxim ahamiyat kasb qiladi. Uning iqtisodiyotga ahamiyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular natijasida mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va moliyaviy inklyuzivlik o'rtasida korrelyasion bog'liqlik mavjudligi aniqlangan [3].

Masalan, Dolan E.Dj., va Kempbell K.D. "Moliyaviy inklyuziya - jismoniy shaxslar va korxonalar o'z ehtiyojlarini qondiradigan foydali va arzon moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan: tranzaksiyalar, to'lovlar, jamg'armalar, kreditlar va sug'urta xizmatlaridan qay darajada foydalana olishini anglatadi [5]" deya ta'riflaganlar. Bunda moliyaviy inklyuziyani bar qator moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatiga alohida urg'u berilmoqda.

Mazkur tushunchaga, Jahon banki tomonidan "moliyaviy inklyuziya - bu institutsional ishtirokchilar tomonidan shaffof tarzda, moliyaviy imkoniyatlari past darajada bo'lgan guruhlar uchun zarur bo'lgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan arzon narxlarda foydalanishni ta'minlash jarayoni" [12] deya ta'rif keltirgan. Mazkur, ta'rif moliyaviy inklyuziyani kengroq ma'noda aks ettirib, uning tizim shaffofligiga ta'siri va aholining zaif qatlamlariga berajak imkoniyatlari xaqida so'z yuritilmoqda.

Xalqaro Biznes standart kompaniyasi esa ushbu tushuncha bo'yicha "moliyaviy inklyuziya daromadlari yoki jamg'armalaridan qat'iy nazar, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali jamiyatda barchani qamrab olishga qaratilgan. U iqtisodiy jihatdan kam ta'minlanganlarga moliyaviy yechimlar berishga qaratilgan bo'lib, kambag'allarga arzon va ishlatish uchun qulay shaklda jamg'arma va kredit xizmatlarini ko'rsatishni tavsiflash uchun keng qo'llaniladi" deya keltirilgan. Ushbu ta'rif yuqoridagi ta'riflarga ko'ra kengroq, ya'ni iqtisodiyotning turli qatlamlariga ularning faolliklarini moliyalashtirishga imkon berish orqali makroiqtisodiy darajadagi muammo bo'lgan mamlakatdagi kambag'allikni kamaytirishga imkon beruvchi asosiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda va fikrimizcha aynan ushbu ta'rif moliyaviy inklyuziyaning mazmunini to'liqroq ochib berishga muvaffak bo'lmoqda.

Afsuski, yuqoridagi moliyaviy muassasalar soni va moliyaviy infrastrukturaning o'zinigina ijobiy siljishga olib kelmaydi, ayniqsa, mijozlar xulq atvori o'zgartirish oson emas. Bunda, moliyaviy texnologiyalarning joriy qilinishi va iste'molchilarning himoya qiluvchi huquqiy asos shakllantirilishi talab etiladi. Ularning yuqori samara berishi uchun moliyaviy texnologiyalarning iqtisodiyotning passiv guruhlari, ya'ni moliyaviy savodhonligi past bo'lganlar, ayollar va kambag'allar uchun ham moslashtirilishi talab etiladi [4].

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda, mamlakatdagi moliyaviy inklyuziyani oshirish orqali mamlakatdagi bir qator muammolarni, ya'ni aholining turli qatlamlariga moliyaviy xizmatlardan, xususan turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkniyatini berish orqali iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, kambag'allikni kamaytirish imokni paydo bo'lishini anglatmoqda.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada Jahon banki, Pitchbook, xalqaro Biznes standart kompaniyasi va boshqa moliya tashkilotlari, xalqaro konsalting kompaniyalari, shuningdek, O'zbekiston respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, rasmiy statistik ma'lumotlari va tadqiqotlari natijasi asosida matematik statistik tahlil, ko'rsatkichlar monitoringi, kuzatuv kabi metodlar yordamida tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ancha yillardan beri moliyaviy inklyuzivlik tushunchasidan yiroq edi, 2021-yil iyun oyida O'zbekiston Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tashabbusi bilan 2021-2023 yillarga mo'ljallangan birinchi moliyaviy strategiyani qabul qilindi. Bu strategiya beshta: moliyaviy xizmatlar, mikro va o'rta korxonalar uchun moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish, raqamli moliyaviy xizmatlar, moliyaviy xizmatlar ishtirokchilarini himoya qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlariga qaratilgan. Global Findex ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda bank hisob varag'iga ega voyaga yetgan shaxslar ulushi 2011-yildagi 23% dan 2021-yilda 44% ga deyarli ikki barobarga oshgan.

2023 yil 1-nobar holatiga ko'ra masofaviy bank xizmatlari ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar soni 39 575 598 tani tashkil etgan. Banklar misolida, Agrobank 5 576 288 ta, Ipoteka-bank 2 957 789 ta, O'zmilliybank 1 711 768 ta, Hamkorbank 1 675 034 ta, Ipak Yo'li banki 2 187 101 ta, Kapitalbank 1 247 448 tani tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatgich O'z sanoat-qurilish bankida 6 066 181 tani tashkil etgan [14].



1-rasm: Voyaga yetgan shaxslarning mablag'larini jamg'arish usullari¹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda moliya institutlarida mablag'larni saqlash darajasi anchagina past, bu ko'rsatgich qo'shni Qozog'iston Respublikasiga nisbatan ham pastligini ko'rishimiz mumkin.


Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda hisob raqamga o'tkazilgan ish haqi, davlat o'tkazmalari va pensiya to'lovi ko'rsatgichlari 2014-yil 37% dan 2021-yil 45% ga ko'tarilgan.

¹ Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<https://blogs.worldbank.org/en/psd/livestock-lifelong-savings-improving-financial-inclusion-uzbekistan>

International Journal of Finance and Digitalization

Email: ijfd.uz@gmail.com



2-rasm: O'zbekistonda davlat sektorida ish haqi, davlat o'tkazmalari va pensiya olgan voyaga yetganlar (%), 2021 yil²

2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi ish haqi, davlat o'tkazmalari va pensiya to'lovlarning asosiy qismi naqt to'lov ko'rinishda amalga oshirilgan, bu o'z navbatida moliya bozorida mablag'lar aylanuvchanligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Moliyaviy xizmatlardan masofadan turib foydalana olish imkoniyatining mavjudligi moliya bozori ishtirokchilari faolligiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi, bunda masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan, to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

1-jadval.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni³


Кўрсаткичлар	01.01.2021 y.	01.01.2022 y	01.01.2023 y	01.01.2024	O'zgarish 2023-2021 (%)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	947 772	968 580	1 157 045	1 379 396	42.41
Jismoniy shaxslar	18 314 342	19 234 804	28 843 869	40 703 244	111.6
Jami	19 262 114	20 203 384	30 000 914	42 082 640	108.2

² Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
www.worldbank.org/en/publication/globalindex

³ Markaziy bank blyutenlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2022-yilning mos davriga nisbatan 48.49 foizga oshgan.

Shuningdek, o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning moliyaviy xizmatlardan foydalana olish imokiyatini oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, ularning sonining ko‘pligi foydalanuvchilar uchun kunlik ish faoliyatlari davomida o‘zlariga yaqin bankomat va infokiosklardan foydalana olish imkoniyatlarini oshiradi.



3-rasm. O‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni [14]

3-rasmda keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra jami 12940ta o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar mavjud, bu ko‘rsatgich 2021-yil mos davriga nisbatan 1140taga ko‘p. Shu o‘rinda aytishimiz joizki olis hududlarda ham bankomat va infokiosklar sonini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash, o‘sha hududlardagi moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini oshirib, ularning moliyaviy bozorda faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib mamlakatimizda elektron tijorat raqamli axborot tizimlari orqali amalga oshirilgan sharnomalar bo‘yicha mahsulot sotishlar hajmi 2017-yildan boshlab oshib borgan va 2022-yilda 9694 mlrd so‘mni tashkil etgan [13].

Ammo shu bilan bir qatorda elektron tijorat raqamli axborot tizimlari orqali amalga oshirilgan sharnomalar bo‘yicha mahsulot sotishlar qiymati anchagina past darajada va bu 2022-yildagi YaIM ning atigi 1.2 foizini tashkil etgan [13], bu

elektron tijorat bo'yicha yetarli darajada ishlar amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan 10 yildan ziyod vaqtda mamlakatimiz aholisining moliya-bank xizmatlaridan foydalanish darajasida bir qator siljishlar mavjud. Xususan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni ko'rsatkichlar aholi orasidan moliya xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

Ammo, O'zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish uchun undagi moliya bozori ishtirokchilari faolligini oshirish hamda moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish talab etiladi. Bu maqsadga erishish uchun Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalaridan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish taklif etadi:

1. Milliy moliyaviy inklyuziya, fintex siyosati va texnologiyasi - bu moliyaviy inklyuziya uchun yaxlit baholash strategiyalarni taqdim etish, mijozlarga moliyaviy inklyuzivlikka qanday yondashish bo'yicha yordam ko'rsatish, raqamli moliyaviy inklyuzivlikka e'tiborni kuchaytirishga va moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish uchun fintechdan foydalanish, keng qamrovli va tizimli tarzda va qanday qilib moliyaviy inklyuzivlikning kengroq maqsadiga erishish yo'lida ishlash uchun turli xil harakatlar qatorini muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuv.

2. Moliyaviy mahsulotlar va xizmat ko'rsatilmagan segmentlar uchun provayderlar – bu to'g'ridan-to'g'ri texnik yordam ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, xizmat ko'rsatilmayotgan segmentlarni texnik jihatdan qo'llab quvvatlashga qaratilgan yondashuv.

3. Moliyaviy iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish - bu moliyaviy iste'molchilarni himoya qilish moliyaviy inklyuzivlik iste'molchilarga (ayniqsa, rasmiy moliya sektorida yangi bo'lgan iste'molchilarga) foyda keltirishi va ularni potentsial zararga duchor qilmasligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv.

4. Moliyaviy imkoniyatlar va xulq-atvor tushunchalari – bu moliyaviy qobiliyat ya’ni, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoitlarni hisobga olgan holda, o’z moliyaviy manfaatlarini ko’zlab harakat qilishning ichki qobiliyati. U iste’molchilarning o’z resurslarini boshqarish va tushunish, ularning ehtiyojlariga mos keladigan moliyaviy xizmatlarni tanlash va ulardan foydalanish bo’yicha bilimlari, munosabatlari, ko’nikmalari va xatti-harakatlarini o’z ichiga oladigan yondashuv.

5. Mikro, kichik va o’rta korxonalar moliyasi – bu odatda siyosatchilar ko’pincha kichik va o’rta biznesni kredit bilan ta’minlash bo’yicha ma’lumotlarni monitoring qilish uchun samarali jarayonlarga ega emaslar. Mikro, kichik va o’rta korxonalar uchun real ta’riflarning yo’qligi, segmentning murakkabligi bilan birgalikda, mikro, kichik va o’rta korxonalar moliyasini kuzatishni qiyinlashtiradi. Bu regulyatorlarning bozordagi bo’shliqlarni, shuningdek, barqarorlik uchun xavflarni ko’rsatishi mumkin bo’lgan segmentlarni aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi. Bozordagi xavf va bo’shliqlarni aniqlash va natijalarni boshqalarga yetkazish uchun keng qamrovli tizim sifatida qarab, texnik vositalar taqdim etishga qaratilgan yondashuv.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. «“O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi tog‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
2. Babajide A. A, Adegboye F.B., Omankhanlen A. E Financial Inclusion and Economic Growth in Nigeria// International Journal of Economics and Financial Issues, 5 (3). – Mersin, 2015. – P. 629-637;
3. Kim D.W., Yu J.S., Hassan M. K. Financial inclusion and economic growth in OIC countries//Research in International Business and Finance. – 2018. – №43 – P.1–14; Babajide A. A, Adegboye F.B., Omankhanlen A. E Financial Inclusion and Economic Growth in Nigeria// International Journal of Economics and Financial Issues, 5 (3). – Mersin, 2015. – P. 629-637; Sharma D. Nexus between financial inclusion and economic growth: Evidence from the emerging Indian economy// Journal of Financial Economic Policy. – 2016. – № 8(1) – P. 13-36; Sethi D., Acharya D. Financial inclusion and economic growth linkage: some

cross country evidence.//Journal of Financial Economic Policy. – 2018. – №10(2) – P.369-385

4. A. Demirgüç-Kunt, L Klapper, D Singer, S Ansar, J Hess The Global Findex Database 2017: Measuring financial inclusion and opportunities to expand access to and use of financial services - The World Bank Economic Review, 2020

5. Demirgüç-Kunt, A. and Hu, B. and Klapper, L. Financial Inclusion in the Europe and Central Asia Region: Recent Trends and a Research Agenda. World Bank Policy Research Working Paper №8830. - 2019. - 33 p.

6. Kim D.W., Yu J.S., Hassan M. K. Financial inclusion and economic growth in OIC countries//Research in International Business and Finance. – 2018. – №43 – P.1–14;

7. Peterson K. Ozili. “Theories of financial inclusion”. MPRA Paper No. 101810, posted 19 Jul 2020 01:56 UTC

8. Sethi D., Acharya D. Financial inclusion and economic growth linkage: some cross country evidence.//Journal of Financial Economic Policy. – 2018. – №10(2) – P.369-385.

9. Sharma D. Nexus between financial inclusion and economic growth: Evidence from the emerging Indian economy// Journal of Financial Economic Policy. – 2016. – № 8(1) – P. 13-36;

10. Долан Э.Дж., Кэмпбелл К.Д. “Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика”. М. ; СПб., 1993. С. 15.

11. Jahon banki rasmiy sayti - <https://www.worldbank.org/en/>

12. Business standard rasmiy sayti - [https://www. https://www.business-standard.com](https://www.business-standard.com)

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti - <https://stat.uz/uz/>

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti - <https://cbu.uz>

15. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi - <https://lex.uz/>